



THE ROLE OF NEOCONSERVATIVE THINK TANKS IN SHAPING U.S. NATIONAL SECURITY STRATEGIES (LATE 20TH – EARLY 21ST CENTURY)

Abrar Salokhiddinovich Turayev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Political Science

Jizzakh State Pedagogical University

E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: neoconservatism, national security strategy, American Enterprise Institute (AEI), The Heritage Foundation, Project for the New American Century (PNAC), Hudson Institute, preemptive strike doctrine, counterterrorism, arms control, energy security, domestic security, U.S. foreign policy, strategic documents.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: This scholarly article analyzes the influence of neoconservative think tanks on the formation of U.S. national security strategies at the end of the 20th and the beginning of the 21st centuries. Think tanks such as the American Enterprise Institute (AEI), The Heritage Foundation, Project for the New American Century (PNAC) and the Hudson Institute played a crucial role in promoting military supremacy, the spread of global democratic values, the doctrine of preemptive strike and aggressive foreign policy in U.S. foreign affairs. The national security strategies shaped by their analyses exhibit skepticism towards arms control treaties, emphasize counterterrorism, energy security, domestic security, and international security with novel approaches. The article highlights the philosophical and strategic ideas of neoconservative think tanks and their integration into practical policies, illustrating their impact on maintaining U.S. global leadership and ensuring national security.

NEOKONSERVATIV “AQL MARKAZLAR” NING AQSH MILLIY XAVFSIZLIK STRATEGIYALARI SHAKLLANISHIGA TA’SIRI (XX ASR OXIRI-XXI ASR BOSHLARIDA)

Abrar Saloxiddinovich Turayev

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ijtimoiy2017@mail.ru

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: neokonservativizm, milliy xavfsizlik strategiyasi, Amerika tadbirkorlik instituti (AEI), Meros jamg'armasi (Heritage Foundation), Yangi Amerika asri loyihasi (PNAC), Gudzon instituti, oldindan zarba doktrinasi, terrorizmga qarshi kurash, qurollanish nazorati, energetik xavfsizlik, AQSh tashqi siyosati, strategik hujjatlar.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada XX asr oxiri va XXI asr boshlarida AQSh milliy xavfsizlik strategiyalarining shakllanishida neokonservativ "aql markazlar"ining ta'sirini tahlil qilinadi. Amerika tadbirkorlik instituti (AEI), Me'ros Fondi, Yangi Amerika asri loyihasi (PNAC), Gudzon Instituti va boshqa neokonservativ tashkilotlar AQSh tashqi siyosatida harbiy ustunlik, global demokratik qadriyatlarni targ'ib qilish, "oldindan zarba" doktrinasi hamda agressiv tashqi siyosat tamoyillarini ilgari surishda muhim rol o'ynadi. Ularning tahlillari asosida qabul qilingan milliy xavfsizlik strategiyalari qurollanishni nazorat qilish shartnomalariga skeptik yondashuv hamda terrorizmga qarshi kurash, energetik xavfsizlik, ichki va xalqaro xavfsizlik masalalarida yangi yondashuvlarni shakllantirdi. Maqolada neokonservativ "aql markazlari"ning siyosiy-falsafiy va strategik g'oyalari, shuningdek, ularning amaliy siyosatga integratsiyasi orqali AQShning global yetakchilik va milliy xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni va ta'sirini yoritiladi.

РОЛЬ НЕОКОНСЕРВАТИВНЫХ «МОЗГОВЫХ ЦЕНТРОВ» В ФОРМИРОВАНИИ СТРАТЕГИЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ США (КОНЕЦ XX – НАЧАЛО XXI ВЕКА)

Аббас Салахитдинович Тураев

Доктор философии (PhD) по политическим наукам

Доцент Джизакского государственного педагогического университета

E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: неоконсерватизм, стратегия национальной безопасности, Американский институт предпринимательства (AEI), Фонд наследия (The Heritage Foundation), Проект нового американского века (PNAC), Институт Хадсона, доктрина превентивного удара, борьба с терроризмом, контроль над вооружениями, энергетическая безопасность, внутренняя

Аннотация: Данная научная статья анализирует влияние неоконсервативных аналитических центров на формирование национальных стратегий безопасности США в конце XX – начале XXI века. Такие центры, как Американский институт предпринимательства (AEI), Фонд наследия (The Heritage Foundation), Проект нового американского века (PNAC) и Институт Хадсона сыграли ключевую роль

безопасность, внешняя политика США, стратегические документы.

в продвижении военного превосходства, распространении глобальных демократических ценностей, доктрины превентивного удара и агрессивной внешней политики в деятельности США. Национальные стратегии безопасности, сформированные на основе их аналитики, проявляют скептицизм к договорам о контроле над вооружениями, акцентируют внимание на борьбе с терроризмом, энергетической безопасности, внутренней и международной безопасности с новыми подходами. Статья освещает философские и стратегические идеи неоконсервативных аналитических центров и их интеграцию в практическую политику, демонстрируя их влияние на поддержание глобального лидерства США и обеспечение национальной безопасности.

Kirish. XX asrning so‘nggi o‘n yilliklari va XXI asr boshlarida xalqaro tizimda keskin geosiyosiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. “Sovuq urush” tugashi, ikki qutbli tartibning yemirilishi hamda AQShning yagona global yetakchi sifatida maydonga chiqishi natijasida yangi geosiyosiy paradig–ma - “unipolyar lahza” shakllandi. Shu jarayonda AQSh tashqi va milliy xavfsizlik siyosatining mafkuraviy asoslarini belgilashda neokonservativ yo‘nalishdagi “aql markazlar” muhim o‘rin egalladi.

Neokonservativizm XX asrning ikkinchi yarmida liberalizm va realizm o‘rtasidagi mafkuraviy bo‘shliqni to‘ldirgan holda, AQShning global yetakchilik rolini “demokratiya eksporti” va “kuch orqali tinchlik” g‘oyalari bilan asoslab berdi. Aynan shu davrda neokonservativ “aql markazlar” milliy xavfsizlik strategiyalarining konseptual yo‘nalishlarini shakllantirishda faol qatnashdilar. Ular tomonidan ishlab chiqilgan strategik hujjatlarda AQShning global xavfsizlik siyosatiga neokonservativ qarashlar chuqur singdirildi. Ushbu yondashuvda “Pax Americana” g‘oyasi, ya’ni AQShning xalqaro tizimda barqarorlik va tartibni o‘rnatishdagi yetakchilik roli, asosiy mafkuraviy tayanchga aylandi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda xalqaro tizimda geosiyosiy raqobatning kuchayishi, yangi bloklar va xavfsizlik konsepsiyalarining shakllanishi fonida neokonservativ strategik yondashuvlar yana dolzarb tus olmoqda. Shu sababli, ularning AQSh siyosatidagi tarixiy tajribasini o‘rganish hozirgi global xavfsizlik paradigmalari uchun ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi. Mazkur maqolaning tadqiqot obyekti AQShdagi neokonservativ yo‘nalishdagi “aql markazlar”ning milliy xavfsizlik strategiyalari, mudofaa

siyosati va tashqi siyosiy konsepsiyalarni shakllantirishdagi oʻrni va taʼsir mexanizmlaridir. Ushbu obyekt doirasida Amerika tadbirkorlik instituti (AEI), Meros jamgʻarmasi (Heritage Foundation), Yangi Amerika asri loyihasi (PNAC), Gudzon instituti kabi tashkilotlarning faoliyati, ularning siyosiy tavsiyalari va strategik hujjatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot quyidagi ilmiy yondashuv va metodlarga tayanilgan. Jumladan, neokonservativ “aql markazlar”ning shakllanishi, rivojlanishi va ularning 1980-2000-yillardagi AQSh xavfsizlik strategiyalariga taʼsirini tarixiy ketma-ketlikda oʻrganishda tarixiy-tahliliy, “aql markazlar”ning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonidagi institutsional roli, davlat bilan aloqalari va siyosiy elitalar tarmogʻidagi oʻrni tahlilida institutsional yondashuv, neokonservativ mafkura (demokratiya eksporti, kuch orqali tinchlik, “Pax Americana” konsepsiyasi)ning AQSh milliy xavfsizlik strategiyalariga singdirilishini occhib berishda siyosiy-mafkuraviy tahlil, shuningdek, gʻoyalar, siyosiy institutlar va tashqi siyosat qarorlari oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni tizimli tarzda oʻrganish, qiyosiy tahlil hamda neokonservativ “aql markazlar” tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy hujjatlar, manifestlar, strategik tavsiyalar va hisobotlardagi nutq, termin va konsepsiyalarning mazmunini tahlil

Manbalar tahlili va muhokama. Neokonservativ mafkurani shakllantirish va targʻib etishda yetakchi rol oʻynagan Amerika tadbirkorlik instituti (AEI), Meros jamgʻarmasi (Heritage Foundation), Yangi Amerika asri loyihasi (PNAC), Gudzon instituti kabi neokonservativ “aql markazlari” milliy xavfsizlik siyosatining ustuvor yoʻnalishlarini aniqlashda ham muhim manba hisoblanadi. Ularning tahlillariga koʻra, AQSh milliy xavfsizlik siyosatida toʻrtta asosiy ustuvor yoʻnalish mavjud boʻlib, ular davlat siyosatida aniq aks etadi.

Birinchi ustuvor yoʻnalish – bu harbiy ustunlikni taʼminlash va qurolli kuchlarni transmilliy terrorizmga qarshi samarali kurashga moslashtirishdir. Neokonservativ aql markazlari, xususan Amerika tadbirkorlik instituti (AEI), ushbu yoʻnalishni AQShning global harbiy kuch sifatidagi yetakchiligini saqlashning poydevori deb hisoblaydi. Ularning taʼkidlashicha, xalqaro maydondagi anarxik va yuqori konfliktli muhitda, qurolli kuchning kuchaytirilishi va yangilanishi milliy xavfsizlik uchun asosiy shartdir[1].

Neokonservatorlar uchun xalqaro munosabatlar tizimida kuch-qudrat muvozanati konsepsiyasi qisman inkor etiladi. Ularning yondashuviga koʻra, AQSh “tanlangan” davlat sifatida boshqalardan ajralib turadi va uning global yetakchiligi demokratiya, erkinlik va AQSh qadriyatlarining universalligi gʻoyasi bilan izohlanadi. Shu sababli, neokonservativ “aql markazlari” AQShning kuchsiz davlatlar bilan emas, balki demokratik davlatlar bilan ittifoq tuzishi, avtoritar tuzumlarga qarshi siyosiy va harbiy bosim oʻtkazishi lozimligini taʼkidlaydi. Bundan tashqari, xalqaro huquq va tashkilotlar samaradorligini tanqid qilish neokonservativ pozitsiyaning muhim qismi hisoblanadi. Amerika tadbirkorlik instituti (AEI) va Meros jamgʻarmasi kabi markazlar xalqaro institutlar milliy manfaatlarni cheklashi va ularni amalga

oshirishda to'siq bo'lishi mumkinligini qayd etadilar[2]. Shu bois, harbiy kuchni asosiy vosita sifatida saqlash va uni to'g'ri boshqarish neokonservativ strategiyaning markazida turadi. Shunday qilib, neokonservativ "aql markazlari" nazarida milliy xavfsizlik siyosatining ustuvor yo'nalishlari – harbiy ustunlikni mustahkamlash, demokratiyani yoyish, xalqaro hamkorlikni manfaatlarga muvofiqlashtirish va avtoritar tuzumlarga qarshi kurashdir. Ushbu yondashuvlar AQShning global siyosatda yetakchi o'rinni saqlashini ta'minlashga qaratilgan.

"Inqirozli sharoitlarda qaror qabul qilishda siyosiy va harbiy strategik o'zgarishlar bo'yicha neokonservatorlarning ko'plab g'oyalari siyosiy faylasuf Leo Shtraus va harbiy strateg-tahlilchi Albert Uolstetter tomonidan shakllantirilgan bo'lib, ularning siyosiy-falsafiy va harbiy-strategik yondashuvlari neokonservativizm mafkurasi uchun konseptual ahamiyat kasb etadi"[3]. Ular Pentagon va bir nechta prezidentlik ma'muriyatining siyosiy-harbiy yondashuvi hamda harbiy-strategik fikrlashiga katta ta'sir ko'rsatishgan. Steinberg ta'kidlaganidek, Amerika tadbirkorlik instituti (AEI) va Meros jamg'armasi kabi neokonservativ "aql markazlari" Leo Shtraus va A.Uolstetterning nazariy yondashuvlarini o'zining siyosiy-doktrinal poydevori sifatida qabul qilgan[4].

A.Uolstetterning strategik tahlil, yuqori texnologiyalarni qo'llash va raketaga qarshi mudofaa tizimlarini rivojlantirish bo'yicha konsepsiyalari neokonservativ "aql markazlari"ning siyosiy-texnik tahlillarida markaziy o'rin tutadi[5]. Uning yadroviy strategiya va virtual urush konsepsiyalari neokonservativlar tomonidan 2000-yillar boshidagi AQSh milliy xavfsizlik strategiyalarida faol qo'llanildi. Ayniqsa, 2002-yilda qabul qilingan "AQSh yadroviy doktrinasini" va 2011-yilda Anti-Ballistik Raketa (ABM) shartnomasidan (ABM shartnomasi – bu AQSh va Sovet Ittifoqi o'rtasida 1972-yilda imzolangan xalqaro shartnoma bo'lib, uning maqsadi anti-ballistik raketa tizimlarini cheklash orqali raketa qurollari raqobatini nazorat qilish va harbiy barqarorlikni saqlash edi) chiqish qarori neokonservativ "aql markazlari"ning ta'siri ostida qabul qilingan siyosiy qarorlar sifatida baholanadi.

Amerika tadbirkorlik instituti (AEI) va Gudzon instituti hisobotlarida Shtraus va Uolstetterning g'oyalari ko'plab zamonaviy xavfsizlik tahdidlariga, xususan, transmilliy terrorizm, avtoritar davlatlarning agressiv siyosati, va kiberxavfsizlik sohalaridagi chaqiriqlarga javob berish uchun asos sifatida ko'rsatiladi[6]. Neokonservativ "aql markazlari" bu nazariyotchilarning konsepsiyalarini zamonaviy global geosiyosiy kontekstga moslab, AQShning strategik ustunligini saqlab qolish uchun muhim ilmiy-amaliy manba sifatida ishlatadi.

Krepinevich qayd etishicha, Uolstetter AQSh strategik havo kuchlarining xorijiy davlatlarda joylashtirilishi bo'yicha maslahatlar bergan va uning "Ikkinchi zarba" strategiyasi yadroviy qurollar konsepsiyasining markaziy elementi hisoblanadi[5].

Demak, aytilish mumkinki, neokonservativizm mafkurasining xavfsizlik yondashuvlari rivojida A.Uolstetterning oʻrni katta boʻlib, keyingi davrlarda AQSh maʼmuriyatidagi neokonservativlar taʼsirida uning harbiy-strategik gʻoyalari hayotga tatbiq etildi. Masalan, milliy manfaatlarni taʼminlash va milliy xavfsizlik omili sifatida harbiy kuchdan foydalanish siyosatini davom ettirish takliflari oʻz ijrosini topdi.

“Milliy xavfsizlik strategiyasi” dastlab mudofaa budjeti xarajatlarini qonunchilik organlari oldida oqlash va hisobot berish vositasi sifatida ishlab chiqilgan boʻlsa-da, bugungi kunda u AQSh rahbariyatining harbiy-strategik qarashlarini baholashda asosiy hujjatlardan biriga aylangan.

AQSh milliy xavfsizlik strategiyalarining shakllanishida neokonservativ mafkuraviy taʼsir ayniqsa sezilarli boʻlib, bu taʼsir R.Reygan va J.Bush prezidentligi davrlarida oʻzining eng yuqori choʻqqisiga yetdi. Xususan, 1987-yilda qabul qilingan birinchi rasmiy milliy xavfsizlik strategiyasi hujjati neokonservativ yondashuvlarning siyosiy va harbiy ustuvorliklarini aks ettirgan. 1987-yilda qabul qilingan AQShning birinchi rasmiy Milliy xavfsizlik strategiyasi hujjati (National Security Strategy – NSS) neokonservativlar va ularning aql markazlari faoliyatining bevosita taʼsiri ostida shakllangan[7]. 1980-yillarning oʻrtalariga kelib, Amerika tadbirkorlik instituti (AEI), Meros jamgʻarmasi, Gudzon Instituti kabi “aql markazlari” milliy xavfsizlik va tashqi siyosat boʻyicha strategik tavsiyalar ishlab chiqishda faol ishtirok eta boshlagan. Amerika tadbirkorlik instituti (AEI) ekspertlari, xususan R.Perl, J.Kirkpatrick, P.Volfovitz kabi neokonservativ arboblari Reygan maʼmuriyati bilan bevosita ishlagan. Meʼros Fondi 1980-yillarda “Rahbarlik vakolati” (“Mandate for Leadership”)[8] nomli yirik siyosiy yoʻriqnoma tayyorlab, yangi maʼmuriyat uchun tashqi siyosat va xavfsizlik boʻyicha aniq ustuvor yoʻnalishlarni belgilab berdi. Ushbu hujjatlar va tahlillar “NSS-1987” mazmuniga kirib borgan. Bu hujjat Reagan maʼmuriyatining rasmiy strategik hujjati boʻlib, unda neokonservativ mafkura doirasidagi koʻplab fikrlar siyosiy-doktrinal darajaga koʻtarilgan. (1-jadvalga qarang).

Keyingi yillarda – 1988, 1990 va 1991-yillarda qabul qilingan xavfsizlik strategiyalarida ham harbiy kuch omilining milliy xavfsizlikni taʼminlashdagi markaziy oʻrni taʼkidlangan. Ushbu hujjatlarga koʻra, davlat xavfsizligini himoya qilishda eng asosiy vosita sifatida qurolli kuchlarning salohiyati va ularning modernizatsiyasi koʻzda tutilgan. Neokonservativ paradigma bu davrda xavfsizlikni taʼminlashda harbiy kuchga asoslangan anʼanaviy yondashuvni mustahkamlab, AQShning global yetakchiligini saqlab qolish uchun agressiv tashqi siyosatni ilgari surdi. Ushbu yondashuv milliy xavfsizlik strategiyalarida oʻz ifodasini topib, qurolli kuchlarni yangicha tahdidlarga xususan, “sovuq urush” davrining yakunidan keyingi transmilliy terrorizm va regional mojarolarga qarshi samarali kurashga moslashtirish zaruratini taʼkidlagan.

1-jadval

Neokonservativ “aql markazlari” va “NSS-1987” oʻrtasidagi strategik uygʻunlik

Aql markazi	Asosiy vakillar, ekspertlar	Asosiy g'oyalar	“NSS-1987” da joy olgan fikrlar
Amerika tadbirkorlik instituti (AEI)	R.Perl, J.Kirkpatrick, P.Volfovitz	- Harbiy kuchni saqlab qolish - Mafkuraviy kurash (SSSRga nisbatan) - Demokratiyani yoyish	- Harbiy ustunlik zarurati - Sovet tahdidining birlamchi deb belgilanishi - “Erkin dunyo” qadriyatlarini himoya qilish
Meros jamg'armasi (The Heritage Foundation)	E. Fyulner, J.Carafano	- Siyosiy konservatizm - Strategik hujjatlar orqali siyosatga yo'l ko'rsatish (“Mandate for Leadership”)	- Xavfsizlik va tashqi siyosatda aniq ustuvorliklar - Strategiya asosida siyosiy yo'nalishlar belgilanishi
Gudzon instituti	X. Kan, M.Singer	- Geostrategik rejalashtirish - Kiber va texnologik tahdidlarni oldindan ko'rish	- Strategik rejalashtirish tamoyili NSSga tatbiq etilgan - Kelajak tahdidlariga nisbatan ilg'or yondashuv
Yangi Amerika asri loyihasi (Project for the New American Century - PNAC) (garchi 1990-yillarda tuzilgan bo'lsa-da, asoschilarning g'oyalari ilgari ham mavjud edi)	R. Kagan, U. Kristol (1980-yillar oxirida AEI tarkibida faol)	- AQShning global liderligini ta'minlash - “Pax Americana” g'oyasi	- AQShning global rolini “shartli emas” deb belgilash - Harbiy va siyosiy chekinishlardan ogohlantirish

AQSh milliy xavfsizlik strategiyasining shakllanishida neokonservativ “aql markazlari” roli juda katta bo'lgan. Ushbu markazlar neokonservativ mafkurani tizimli ravishda tahlil qilib, uni siyosat va strategiya hujjatlariga singdirish orqali o'zining mutaxassislik salohiyatini milliy xavfsizlik sohasida faol namoyon etdi.

Amerika tadbirkorlik instituti (AEI) kabi markazlar tomonidan tayyorlangan tahliliy hisobotlar va tavsiyalar, ayniqsa, 1980-1990 yillarda Reygan va Bush prezidentligi davrida milliy xavfsizlik strategiyasining asosiy konsepsiyalarini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu hujjatlarda neokonservativ yondashuvlar xususan, harbiy kuchning ustunligi, AQShning global yetakchilik roli, agresiv tashqi siyosat va demokratiyani yoyish aniq ko'zga tashlanadi.

Neokonservativ “aql markazlari” shuningdek, qurolli kuchlarni modernizatsiya qilish, raqobatbardosh mudofaa sanoatini rivojlantirish, va transmilliy tahdidlarga qarshi strategiyalar ishlab chiqishga katta e'tibor qaratdi. Bu tavsiyalar milliy xavfsizlik strategiyalariga integratsiyalashib, mudofaa budjetini asoslash va qonunchilik organlari bilan muloqotda muhim vosita bo'ldi (2-jadvalga qarang).

**1987-1991-yillardagi AQSh Milliy xavfsizlik strategiyalari shakllanishida
neokonservativ “aql markazlar”nin ta’siri**

Yil	Strategik hujjat	Neokonservativ “aql markazlari”	Asosiy g‘oyalar, ta’sir shakli	Hujjatda aks etgan g‘oyalar
1987	“AQSh Milliy Xavfsizlik Strategiyasi (National Security Strategy of the United States - NSS-1987)”	Amerika tadbirkorlik instituti (AEI), Meros jamg‘armasi (The Heritage Foundation), Gudzon institute.	- Harbiy ustunlik; - Mafkuraviy kurash; - SSSR tahdidi haqida ogohlantirish.	- Harbiy kuchni oshirish - AQSh global yetakchiligini mustahkamlash - “Erkin dunyo” qadriyatlarini himoya qilish
1988	“AQSh Milliy Xavfsizlik Strategiyasi (National Security Strategy of the United States - NSS-1988)”	Amerika tadbirkorlik instituti (AEI), Meros jamg‘armasi (The Heritage Foundation), Guver Instituti	- SSSRning ichki zaifliklarini tahlil qilish; - Qurollanish musobaqasi orqali bosim.	- Sovetlar bilan muzokaralarga qaramay, harbiy tayyorgarlik saqlab qolinishi - SDI (Strategic Defense Initiative) davom ettirilishi
1990	“AQSh Milliy Xavfsizlik Strategiyasi (National Security Strategy of the United States - NSS-1990)”, (“Ishtirok va kengayish bo‘yicha Milliy xavfsizlik strategiyasi” (“A National Security Strategy of Engagement and Enlargement”))	Amerika tadbirkorlik instituti (AEI), Meros jamg‘armasi (The Heritage Foundation), Gudzon instituti, yangi paydo bo‘layotgan PNAC atrofidagi shaxslar.	- Sovet Ittifoqi parchalanayotgan paytda “g‘alabani mustahkamlash” zarurati; - Global demokratlashtirish.	- AQShning yangi global tartibni shakllantirishda yetakchilik roli; - G‘arb qadriyatlarini tarqatish va iqtisodiy liberalism.
1991	“AQSh Milliy Xavfsizlik Strategiyasi (National Security	Amerika tadbirkorlik instituti (AEI), Meros jamg‘armasi (The Heritage Foundation),	- “Yangi dunyo tartibi” g‘oyasi; - Yaqin Sharqdagi strategik manfaatlar	- AQShni Yaqin Sharqdagi tahdidlarga tayyorlash;

	Strategy of the United States - NSS-1991)"	Gudzon Instituti, Karnegi	(Kuvayt mojarosi fonida); - Geosiyosiy "vakum"ni to'ldirish.	- Demokratiya va xavfsizlikni bog'liq konsept sifatida ilgari surish.
--	--	---------------------------	---	---

2000-yillarda esa, ayniqsa 2002-yilda qabul qilingan milliy xavfsizlik strategiyasi va yadroviy doktrinada neokonservativ markazlarning ta'siri yanada oshdi. Bu davrda ularning fikrlari terrorizmga qarshi kurash, avtoritar rejimlarga nisbatan qat'iy pozitsiya va global demokratik g'oyalarni targ'ib qilish sohalarida yaqqol namoyon bo'ldi. 2002-yildan boshlab neokonservativ ta'sir eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. PNAC, AEI, Meros jamg'armasi o'zlarining 1990-yillardagi nashrlari va tavsiyalari orqali Bush ma'muriyatining "preemptive war" (oldindan zarba) konsepsiyasini ilgari surishga xizmat qildi. AQShning 2002-yilgi Milliy Xavfsizlik Strategiyasi (National Security Strategy – NSS-2002) to'g'ridan-to'g'ri PNACning 2000-yildagi mashhur "Amerikaning mudofaasini qayta qurish" ("Rebuilding America's Defenses") hujjati ta'siri ostida shakllangan. Gudzon instituti bu davrda energetika xavfsizligi, texnologik xavflar va Xitoy tahdidi yuzasidan tahlillarni kuchaytirdi.

Alohida shaxslarni o'rni ham katta bo'lgan. Masalan, R.Pearl "Harbiy kuchni qo'llash orqali AQShning global liderligi saqlanadi" degan fikrni ilgari surgan, bu esa 1987-yildagi Milliy Xavfsizlik Strategiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan. P.Volfovitz 2002-yildagi strategiyada ko'p marta tilga olingan oldindan hujum ("preemptive strike") konsepsiyasining asosiy muallifi. F.Gaffni raketaga qarshi mudofaa tizimlarining rivojlanishini ilmiy jihatdan asoslab bergan va 2011-yilda ABM shartnomasidan chiqish qarorida ta'sir ko'rsatgan. Prezident J.Bushning 2003-yil Iroq urushi boshlanishi oldidan qilgan nutqlari neokonservativ aql markazlarining siyosiy konsepsiyalarini aks ettiradi.

Neokonservatorlar tomonidan qurollanishni nazorat qilishga oid xalqaro shartnomalarga, xususan, yadroviy qurollar sinovlarini taqiqlash shartnomalari va o'rta masofali raketalarni cheklashga qaratilgan bitimlarga nisbatan jiddiy tanqidiy yondashuv mavjud. Ularning fikricha, bunday shartnomalar ko'pincha AQShning milliy xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan strategik ustunlikni cheklaydi va raqib davlatlarning tahdidlarini to'liq bartaraf eta olmaydi. 2011-yilda prezident B.Obama ma'muriyati davrida ham neokonservativ aql markazlari ta'siri bilan ABM shartnomasidan chiqish qarori qabul qilindi. Bu qaror hududiy raketalariga qarshi mudofaa tizimlarini mustahkamlashga imkon yaratdi.

Neokonservativ mafkurada "AQSh xavfsizligi asosan qurolli kuchlarga tayanadi, qurollarni nazorat qilishga qaratilgan sarobga emas" tamoyili asosiy o'rin tutadi. Bu yondashuv qurollanishni nazorat qilish bitimlarining chegaralari va samaradorligiga shubha bilan qarashga, shu bilan birga, mudofaa sohasidagi texnologik va strategik ustunlikni saqlashga intilish sifatida namoyon bo'ladi.

Me'ros Fondi va Amerika tadbirkorlik instituti kabi neokonservativ "aql markazlari" ushbu tamoyilni faol himoya qilgan va bu mavzuda bir qator hisobotlar tayyorlab, AQSh hukumatining qurollanish siyosatida qat'iy pozitsiya egallashiga turtki bergan.

Shunday qilib, neokonservativlar uchun qurollanishni nazorat qilish shartnomalari milliy xavfsizlik strategiyasining ustuvorligi va harbiy kuchning samaradorligini ta'minlash maqsadlari bilan muvofiq kelmasligi sababli ular bu boradagi shartnomalarga ehtiyotkorlik bilan yondashishni tavsiya qiladilar.

Milliy xavfsizlik siyosatining ikkinchi ustuvor yo'nalishi – ichki xavfsizlikni ta'minlash bo'lib, u "terrorchilik tahdidiga qarshi kurashish, chegara xavfsizligi va noqonuniy immigrasiyaga qarshi kurash, giyohvand moddalar savdosi, axborot xavfsizligi, infratuzilma xavfsizligi, xavfli epidemik kasalliklarning tarqalishiga qarshi kurashish va bioterrorchilik hujumlarining oqibatlarini bartaraf etish uchun sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish kabi yo'nalishlardagi vazifalarni qamrab oladi"[9]. Bu yo'nalishda neokonservativlar, asosan, terrorizmga qarshi kurash masalasiga e'tibor qaratishdi.

AQSh milliy xavfsizlik siyosatining uchinchi ustuvor yo'nalishi sifatida global iqtisodiyot va moliya barqarorligini ta'minlash, energetik xavfsizlik, tashqi bozorlarning ochiqligi kabi iqtisodiy xavfsizlik omillarini e'tirof etish mumkin. Neokonservativizm mafkurasining ochiq bozor tamoyillari iqtisodiy xamkorlik imkoniyatlarini taqdim etsa-da, energetik xavfsizlik yo'nalishida o'ziga xos destruktiv qarashlar ham shakllandi. Asosiy energiya manbalari bo'lgan neft va gaz uchun raqobatning keskinlashuvi energetik xavfsizlik omilini yanada kuchaytirdi. Mamlakat taraqqiyoti, iqtisodiy rivojlanishi bevosita uglevodorod manbalariga bog'liq ekan, AQShning energetik imkoniyatlarini yanada oshirishga qaratilgan xavfsizlik yondashuvlarining shakllanishida neokonservativ qarashlar ta'siri zaruratini taqozo qildi. Shu jihatdan, neokonservativizm ta'siri ostidagi AQSh ma'muriyatining Yaqin Sharqdagi qator harbiy harakatlari, asosan, energetik xavfsizlik manfaatlari bilan bog'liq ekanligi to'g'risidagi xulosalar shakllandi.

Keyingi davrlarda "energetik xavfsizlik" tushunchasi tarixan dunyodagi yirik davlatlarning geosiyosiy raqobati kontekstida shakllangan bo'lib, energetika resurslari import qiluvchi G'arb davlatlari va iqtisodiy-energetik ittifoq bo'lib birlashgan OPEK (neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti) o'rtasida resurslarning narxi masalasidagi nizo sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Gudzon Instituti va Amerika tadbirkorlik instituti kabi neokonservativ markazlar energetik resurslarni, ya'ni, neft va gazni milliy xavfsizlikning ajralmas qismi deb hisoblaydi. Ularning fikricha, ushbu resurslarga egalik va ularga kirish imkoniyati AQShning global siyosiy va iqtisodiy ustunligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega

Gudzon Instituti hisobotida Fors ko'rfazi mintaqasidagi neft resurslariga erkin kirish imkoniyati AQSh iqtisodiyotining barqarorligi uchun hayotiy ahamiyatga ega ekani ta'kidlangan[10]. Shuningdek, Amerika tadbirkorlik instituti ekspertlari global energetik resurslarni nazorat qilish va himoya qilish orqali milliy manfaatlarni mustahkamlash zarurligini alohida ko'rsatganlar[11].

AQSh milliy xavfsizlik siyosatining to'rtinchi ustuvor yo'nalishi –xalqaro xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq qarashlarni o'z ichiga oladi. Xususan, neokonservativ qarashlarga ko'ra, AQSh gegemonligi xalqaro xavfsizlikni ta'minlashning asosi hisoblanadi. Bu yo'nalishda milliy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi mintaqaviy mojarolarning oldini olishda hamkor davlatlar ittifoqchiligini mustahkamlash, dunyoda demokratiyani yoyish, nodemokratik tuzumlarning xalqaro xavfsizlikka ta'sirini kuchsizlantirish hamda siyosiy tuzumini o'zgartirish choralari ko'rish, radikal islom ekstremizmiga qarshi kurashish kabi vazifalarga e'tibor qaratiladi.

Xalqaro xavfsizlikni ta'minlash orqali milliy xavfsizlikka tahdidlardan himoyalanişga qaratilgan neokonservativ yondashuv mazmunida AQShning ustunligi, "tanlanganligi" hamda liberal-demokratik qadriyatlarni butun dunyoda qaror toptirishdagi o'ziga xos "mas'uliyati" kabi g'oyalar yotadi. Neokonservativlar AQShning qudratini va liberal-demokratik missiyasini xalqaro xavfsizlikning asosi deb hisoblab, ko'proq harbiy va strategik vositalarga urg'u beradi. Realistlar esa kuch muvozanati va o'z manfaatlarini asosiy mezon sifatida ko'radi, liberal markazlar esa ko'p tomonlama hamkorlik va institutlarning rolini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuvlar AQShning xalqaro xavfsizlik siyosatining shakllanishida o'zaro muvozanatni talab qiladi.

2000-yillar boshidan boshlab kichik J.Bush ma'muriyati davrida AQSh neokonservativizm mafkurasi asosida shakllangan milliy xavfsizlik siyosatining asosiy yo'nalishlari va neokonservativ "aql markazlari"ning ta'siri quyidagi 3-jadval asosida ko'rib chiqish mumkin:

3-jadval

Yillar	Asosiy voqea yoki hujjat	Neokonservativ "aql markazlari"ning ta'siri	Siyosiy qarashlar va yo'nalishlar
2001-2009	Kichik J.Bush prezidentligi	Amerika tadbirkorlik instituti, Me'ros Fondi, Gudzon Instituti kabi markazlar terrorizmga qarshi kurash strategiyasini shakllantirishda faol ishtirok etishdi.	Terrorizmga qarshi "zarba oldini olish" strategiyasi, global demokratiyani targ'ib qilish, agressiv harbiy siyosat.
2002	Milliy xavfsizlik strategiyasi	Neokonservativ ekspertlar tomonidan tuzilgan va ma'qullangan, radikal islomiy ekstremizmni asosiy xavf deb belgiladi.	Terrorizmga qarshi harbiy va siyosiy choralarni kuchaytirish, AQSh global hukmronligini saqlash.

2004	Milliy mudofaa strategiyasi	Neokonservativ “aql markazlari” tomonidan qo‘llab-quvvatlandi, harbiy kuchning ustuvorligini ta’kidladi.	Harbiy budjetni oshirish, qurolli kuchlarni modernizatsiya qilish, global qurolli konfliktlarga tayyor turish.
2006	Milliy xavfsizlik strategiyasining yangilanishi	Neokonservativlar yangi tahdidlar va global xavfsizlik muammolariga mos strategiyalar ishlab chiqishda muhim rol o‘ynadi.	Radikal islomga qarshi kurashni kuchaytirish, demokratik davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash.
2001-2009	Prezident J.Bushning bayonotlari	Neokonservativ ekspertlar tayyorlagan va qo‘llab-quvvatlagan g‘oyalar prezident siyosatida aks etdi.	Amerika fuqaroligini birlashtirish, milliy birlik, vatanparvarlik, harbiy kuchga tayyorlik.

Xulosalar. Xulosa qilganda, birinchidan, XX asr oxiri va XX asr boshlarida AQSh milliy xavfsizlik strategiyalarining shakllanishida neokonservativ “aql markazlar”ning roli beqiyos bo‘ldi. Amerika tadbirkorlik instituti (AEI), Meros jamg‘armasi, Yangi Amerika asri loyihasi (PNAC) kabi tashkilotlar milliy xavfsizlik konsepsiyasini faqat harbiy salohiyat va mudofaa bilan cheklanmagan, balki global siyosiy va mafkuraviy maydonda kuch va g‘oyaviy ustunlikni targ‘ib qilishga qaratilgan kompleks paradigma sifatida shakllantirdilar;

Ikkinchidan, neokonservativ “aql markazlar”ning siyosiy ekspertizalari va strategik tahlillari AQSh Milliy xavfsizlik strategiyalarining asosiy kontseptual poydevorini tashkil etdi. Ular harbiy kuchdan tashqari, iqtisodiy va mafkuraviy resurslardan samarali foydalanish yo‘llarini ham ilgari surib, kompleks xavfsizlik modelini taklif etdilar. Bu yondashuv AQShning global geostrategik raqobatda ustunlikni saqlab qolishiga xizmat qildi;

Uchunchidan, neokonservatorlar milliy xavfsizlikni ichki siyosiy barqarorlik, demokratik qadriyatlarni kengaytirish va AQShning global yetakchiligini mustahkamlash orqali ta’minlash zarurligini ta’kidladilar. Ularning yondashuvi “oldindan zarba berish” va “regimlarni o‘zgartirish” strategiyalari bilan tavsiflanib, 2001-yil 11-sentabrdan keyingi siyosiy va harbiy tashabbuslarda o‘z aksini topdi;

To‘rtinchidan, neokonservativ markazlar xalqaro huquq institutlariga tanqidiy qarashlari va xalqaro institutlarning chegaralarini e’tiborga olib, kuchni xalqaro munosabatlarda hal qiluvchi vosita sifatida ko‘rishlarini ilgari surdilar. Bu esa ularning xavfsizlik strategiyalarida agressiv tashqi siyosat va harbiy intervensiyalarni asosiy vosita sifatida qabul qilishiga olib keldi.

Umuman, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida AQSh milliy xavfsizlik paradigmasi neokonservativ mafkuraviy ta’sir ostida shakllanib, ichki va tashqi siyosatda yangi strategik

yoʻnalishlarni belgiladi. Ushbu paradigma zamonaviy global xavfsizlik muammolari va AQSh tashqi siyosatining samaradorligini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Fyhdalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. McGann J.G. Think Tanks and Policy Advice in the US: Academics, Advisors and Advocates. – London: Routledge, 2021. – P.158-159.
2. Abelson D.E. A Capitol Idea: Think Tanks and US Foreign Policy. – Montreal: McGill-Queen's University Press, 2006. – P.92.
3. Влияние А. Уолстеттера на разработку неоконсерваторами внешней политики и стратегии национальной безопасности США // <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-a-uolstettera-na-razrabotku-neokonservatorami-vneshney-politiki-i-strategii-natsionalnoy-bezopasnosti-ssha/viewer>
4. Steinberg, J. Leo Strauss, Fascist Godfather of the Neo-Cons // Executive Intelligence Review. – 2003. – March 21. – P.14.
5. Krepinevich, A. F. The Pentagon's Wasting Assets: Defense Spending and Military Capabilities. – Washington, D.C.: Center for Strategic and Budgetary Assessments, 2009. – P.30.
6. McGann, J. G. Think Tanks and Policy Advice in the US: Academics, Advisors and Advocates. – London: Routledge, 2021. – P.158
7. National Security Strategy of the United States. – Washington, D.C.: The White House, 1987. – 40 p.
8. Mandate for Leadership: Policy Management in a Conservative Administration / Heritage Foundation. – Washington, D.C., 1981. – 1040 p.
9. Пахалюк К.А. Основания политики национальной безопасности США при Дж. У. Буше-младшем (идеология, концепция, приоритеты) // Власть. –2015. –№9. –С.123-128. // <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovaniya-politiki-natsionalnoy-bezopasnosti-ssha-pri-dzh-u-bushe-mladshem-ideologiya-kontseptsiya-prioritety>
10. Hudson Institute. Energy Security and U.S. National Interests. Washington, D.C., 2003. – P.25.
11. American Enterprise Institute. Energy Policy and National Security. Washington, D.C., 2005. – P.48.